O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING ANDIJON
VILOYATI BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li
Sana: 28-11-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

267151 - SONLI

Obyekt nomi: “Mavjud binolarni buzib o`rniga 4 dona 7 qavatli 8-qavati pentxaus uslubida ko`p qavatli turar joy binolari, shundan 2 tasining 1- qavatlarida MFY idorasi xamda savdo va maishiy xizmat ko'rsatish" bino va inshootlar qurilishi.	
Buyurtmachi:	BOBUR GRAND SIFATLI SAVDO MCHJ
Bosh loyihachi:	"DIZAYN SERVIS PROEKT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“BOBUR GRAND SIFATLI SAVDO” MChJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	095867

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon tumani qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 29.07.2025-yildagi №206321297-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 11.07.2025-yilda berilgan va 01.08.2025-yilda qayta rasmiylashtirilgan №1703-1703203-231764-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi “BOBUR GRAND SIFATLI SAVDO” MChJ tomonidan 2025-yilda tasdiqlangan loyixalash topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “BOBUR GRAND SIFATLI SAVDO” MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida 08.09.2025-yilda tuzilgan №8-25/B-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 23.09.2025-yildagi №215135202-sonli xulosasi.

1.6. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo`mitasi Andijon tumanbo`limining 06.11.2025-yildagi №1/9 259-sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “O`ZGASHKLITI” MChJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	KO`P QAVATLI TURAR-JOY (1-BLOK)	8	388.1	3236.5	12701.56	40
Ko'p xonadonli turar joy binosi	KO`P QAVATLI TURAR-JOY (2-BLOK)	8	388.1	3236.5	12701.56	40
Ko'p xonadonli turar joy binosi	KO`P QAVATLI TURAR-JOY (3-BLOK)	8	516.1	4489.3	16228.7	54
Ko'p xonadonli turar joy binosi	KO`P QAVATLI TURAR-JOY (4-BLOK)	8	329.6	2840.8	9492.5	32
Jami:			**1621.9**	**13803.1**	**51124.32**	**166**

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C^0 li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk -50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C^0.

Maydon seysmikligi 9-balli.

3.2. Bosh reja:

Bosh reja bo‘yicha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

1. Hududning umumiy maydoni – 4672,0 m^2;
2. Qurilish maydoni – 1233,8 m^2;
3. Yo`l va yo`laklar maydoni – 2270,2 m^2;
4. Ko`kalamzorlashtirish maydoni – 1168,0 m^2.

Bino va qizil chiziqlarni joyiga bog‘lash;

Binolarni joyiga bog`lash loyiha ishlarining muhim bosqichlaridan biri bo`lib, bu bosqich bosh rejada loyihalangan barcha bin ova inshootlarni hamda ularni bog`lab turuvchi ko`cha va yo`laklarni qurilish jarayonida to`g`ri joylanishiga imkon beradi. Joyiga bog`lash chizmasi M 1:500 masshtabda bosh reja-2da ko`rsatilgan. Binolarni joyiga bog`lash mavjud o`zgarmas nuqta asosida olingan va masofalar metrda ko`rsatilgan.

Binolar joylashgan hudud yer maydonini muhandislik jihatdan tayyorlash;

Muhandislik jihatidan yer maydonini tayyorlash, bino va inshootlarni to‘g‘ri joylashtirish, ularni yer maydonining qiyalik darajasiga moslab qurish hamda yo‘llarni nishablik darajasini hisobga olgan holda, yog‘ingarchilikdan hosil bo‘luvchi suvlarni qochirish masalasini hal qiladi. Qurilishi lozim bo‘lgan bino va inshootlarni yer yuzasining qiyaligini hisobga olgan holda poydevor baland-pastlik darajasini yer yuzasiga nisbatan belgilab beradi. Bundan tashqari bino poydevorlari uchun yerni qisman kesish yoki aksincha to‘ldirish ishlari uchun yer ishlari miqdorini aniqlab beradi.

Obodonlashtirish;

Loyihaviy bosh reja bo‘yicha joylashtirilgan turar-joy binolari atrofini obodonlashtirish kiradi. Bosh reja bo‘yicha binolar atrofida joylashtirilgan yo‘l va yo‘lkalar, sport maydonlari, yordamchi binolar hamda avtoturargoxlarni joy-joyiga joylashtirib, atrof ko‘rinishini o’quv sharoitiga moslash kiradi.

Ko‘kalamzorlashtirish;

Loyiha hududni ko‘kalamzorlashtirish qurilishi ishlari amalga oshirilishda muhim vazifani egallaydi. Atrof-muhitga, qurilgan binolarga ko‘rk beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko‘kalamzorlashtirish deganda asosan past bo‘yli manzarali daraxt va butalardan iborat bo‘lib,bundan tashqari turli-tuman chiroy beradigan gullar ekilga gulzorlar kiradi. Ko‘kalamzorlar hududga ko‘rkamlik ko‘rinishi berishidan tashqari, u hududni havosini tozalashda muhim ahamiyatga ega. Asosan daraxt va gul ko‘chatlari sharoitga moslashgan, issiq iqlimga chidamli toifalaridan foydalanish talab qilinadi.

Andijon tumani xududida ilova etilgan bosh reja asosida “Mavjud binolarni buzib o`rniga 4 dona 7 qavatli, 8-qavati pentxaus uslubida ko`p qavatli turar-joy binolari, shundan 2 tasining 1-qavatlarida MFY idorasi xamda savdo va maishiy xizmat ko’rsatish” bino va inshootlari Andijon viloyati Andijon tumani Istiqlol MFY, Istiqbol ko’chasi, 500-manzil xududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Andijon tumani qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 29.07.2025-yildagi №206321297-sonli ruxsatnomasiga asosan yer uchastkasi ajratildi . Obyekt yer uchastkasi shimol tomondan kotej ko`chasi bilan, sharq tomondan kotej bilan, janub tomondan savdo va maishiy xizmat binosi bilan, g`arb tomondan Andijon-Kuyganyor yo`li bilan chegaralanadi. Bosh rejaga asosan loyihaviy 4 ta ko`p qavatli turar-joy binosi (bosh rejada 1, 2, 3, 4), avtoturargoh, bolalar o`yingohi, besedka, yong`in xavfsizligi gidranti, o`rindiqlar, chiqindi uchun quti, mavjud MFY binosi va mavjud bino joylashgan.

Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Tasdiqlangan bosh rejaga ko`ra, 7 qavatli 8-qavati penthaus uslubidagi turar-joy binolari seysmik choklar bilan ajratilgan holda 4 ta binodan iborat bo`lib, jami 166 dona honadon joylashgan.

***Loyihaviy “Ko`p qavatli turar-joy (1-blok)” binosi*** - yetti qavatli, yerto`lali va 8-qavati penthaus bo'lib, bir pod`ezddan iborat, rejadagi o`qlar bo`yicha o`lchamlari 24,8x15,0 metr. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metr bo`lib, ushbu qavatda omborxona, tambur, zina va bir dona lift joylashgan. Bino birinchi qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,7 metrni tashkil qiladi. Ushbu qavatda savdo zali va MFY idora binosi, zinapoya, bir dona lift joylashgan bo`lib, MFY uchun xoll, rais xonasi, xokim yordamchisi xonasi, yoshlar yetakchisi xonasi, profilaktika inspektori xonasi, ayollar faoli xonasi, yo`lak, hojatxona, arxiv xonasi loyihalangan. Binoning ikkinchi va yuqori tipik qavatlarda fuqarolar uchun 1, 2 va 3 xonali yashash xonadonlari hamda yo`lak, lift va zinapoya joylashgan bo`lib, qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metrni tashkil qiladi. Binoning ikkinchi va yuqori tipik qavatlarda 6 dona 1 xonali, 24 dona 2 xonali, 6 dona 3 xonali, jami 36 dona xonadon mavjud. Binoning pentxaus qavatida 2 va 3 xonali yashash xonadonlari hamda yo`lak, lift va zinapoya joylashgan bo`lib, qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metrni tashkil qiladi. Binoning pentxaus qavatida 2 dona 2 xonali, 2 dona 3 xonali, jami 4 dona xonadon mavjud.

Binoda 1 xonali honadon 6 dona, 2 xonali honadon 26 dona, 3 xonali honadon 8 dona, jami 40 dona xonadonlar joylashtirilgan. Bino xonadonlar umumiy yashash maydoni – 1100,96 m^2, yerto’la umumiy maydoni – 325,62 m^2, binoning umumiy maydoni – 3236,5 m^2 dan iborat.

Ichki pardoz ishlari – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Ichki pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Pol – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Pol izolyatsiyasi ko`piklashtirilgan polietilendan bajariladi

Eshik – yerto`la, podezdga va honadonga kirish tashqi eshiklari metaldan o`rnatiladi. Deraza va framuga - plastik profildan o`rnatish ko`zda tutilgan. Deraza tokchasining tashqi tomoniga po`lat rux tunukadan qoplash ko`zda tutilgan.

Tashqi pardoz ishlarida - buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Tashqi pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

***Loyihaviy "Ko`p qavatli turar-joy (2-blok)" binosi*** - yetti qavatli, yerto`lali va 8-qavati penthaus bo'lib, bir pod`ezddan iborat, rejadagi o`qlar bo`yicha o`lchamlari 24,8x15,0 metr. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metr bo`lib, ushbu qavatda omborxona, tambur, zina va bir dona lift joylashgan. Bino birinchi qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,7 metrni tashkil qiladi. Ushbu qavatda savdo zallari, zinapoya, bir dona lift joylashgan.

Binoning ikkinchi va yuqori tipik qavatlarda fuqarolar uchun 1, 2 va 3 xonali yashash xonadonlari hamda yo`lak, lift va zinapoya joylashgan bo`lib, qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metrni tashkil qiladi. Binoning ikkinchi va yuqori tipik qavatlarda 6 don a 1 xonali, 24 dona 2 xonali, 6 dona 3 xonali, jami 36 dona xonadon mavjud. Binoning pentxaus qavatida 2 va 3 xonali yashash xonadonlari hamda yo`lak, lift va zinapoya joylashgan bo`lib, qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metrni tashkil qiladi. Binoning pentxaus qavatida 2 dona 2 xonali, 2 dona 3 xonali, jami 4 dona xonadon mavjud.

Binoda 1 xonali honadon 6 dona, 2 xonali honadon 26 dona, 3 xonali honadon 8 dona, jami 40 dona xonadonlar joylashtirilgan. Bino xonadonlar umumiy yashash maydoni – 1100,96 m^2, yerto'la umumiy maydoni – 325,62 m^2, binoning umumiy maydoni – 3236,5 m^2 dan iborat.

Ichki pardoz ishlari – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Ichki pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Pol – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Pol izolyatsiyasi ko`piklashtirilgan polietilendan bajariladi.

Eshik – yerto`la, podezdga va honadonga kirish tashqi eshiklari metaldan o`rnatiladi. Deraza va framuga - plastik profildan o`rnatish ko`zda tutilgan. Deraza tokchasining tashqi tomoniga po`lat rux tunukadan qoplash ko`zda tutilgan.

Tashqi pardoz ishlarida - buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Tashqi pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

***Loyihaviy "Ko`p qavatli turar-joy (3-blok)" binosi*** - yetti qavatli, yerto`lali va 8-qavati penthaus bo'lib, bir pod`ezddan iborat, rejadagi o`qlar bo`yicha o`lchamlari 34,2x15,0 metr. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metr bo`lib, ushbu qavatda omborxona, tambur, zina va bir dona lift joylashgan. Bino birinchi va yuqori tipik qavatlarda fuqarolar uchun 1, 2 va 3 xonali yashash xonadonlari hamda yo`lak, lift va zinapoya joylashgan bo`lib, qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metrni tashkil qiladi. Binoning birinchi va yuqori tipik qavatlarda 14 dona 1 xonali, 28 dona 2 xonali, 7 dona 3 xonali, jami 49 dona xonadon mavjud. Binoning pentxaus qavatida 1, 2 va 3 xonali yashash

xonadonlari hamda yo`lak, lift va zinapoya joylashgan bo`lib, qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metrni tashkil qiladi. Binoning pentxaus qavatida 2 dona 1 xonali, 2 dona 2 xonali, 1 dona 3 xonali, jami 5 dona xonadon mavjud.

Binoda 1 xonali honadon 16 dona, 2 xonali honadon 30 dona, 3 xonali honadon 8 dona, jami 54 dona xonadonlar joylashtirilgan. Bino xonadonlar umumiy yashash maydoni – 1672,09 m^2, yerto'la umumiy maydoni – 445,01 m^2, binoning umumiy maydoni – 4489,3 m^2 dan iborat.

Ichki pardoz ishlari – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Ichki pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Pol – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Pol izolyatsiyasi ko`piklashtirilgan polietilendan bajariladi.

Eshik – yerto`la, podezdga va honadonga kirish tashqi eshiklari metaldan o`rnatiladi. Deraza va framuga - plastik profildan o`rnatish ko`zda tutilgan. Deraza tokchasining tashqi tomoniga po`lat rux tunukadan qoplash ko`zda tutilgan.

Tashqi pardoz ishlarida - buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Tashqi pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

***Loyihaviy "Ko`p qavatli turar-joy (4-blok)" binosi*** - yetti qavatli, yerto`lali va 8-qavati penthaus bo'lib, bir pod`ezddan iborat, rejadagi o`qlar bo`yicha o`lchamlari 21,0x15,0 metr. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metr bo`lib, ushbu qavatda omborxona zina va bir dona lift joylashgan. Bino birinchi va yuqori tipik qavatlarda fuqarolar uchun 2 va 3 xonali yashash xonadonlari hamda yo`lak, lift va zinapoya joylashgan bo`lib, qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metrni tashkil qiladi. Binoning bi rinchi va yuqori tipik qavatlarda 14 dona 2 xonali, 14 dona 3 xonali, jami 28 dona xonadon mavjud. Binoning pentxaus qavatida 1, 2 va 3 xonali yashash xonadonlari hamda yo`lak, lift va zinapoya joylashgan bo`lib, qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,8 metrni tashkil qiladi. Binoning pentxaus qavatida 1 dona 1 xonali, 3 dona 2 xonali, jami 4 dona xonadon mavjud.

Binoda 1 xonali honadon 1 dona, 2 xonali honadon 17 dona, 3 xonali honadon 14 dona, jami 32 dona xonadonlar joylashtirilgan. Bino xonadonlar umumiy yashash maydoni – 1138,87 m^2, yerto'la umumiy maydoni – 283,1 m^2, binoning umumiy maydoni – 2840,8 m^2 dan iborat.

Ichki pardoz ishlari – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Ichki pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Pol – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Pol izolyatsiyasi ko`piklashtirilgan polietilendan bajariladi.

Eshik – yerto`la, podezdga va honadonga kirish tashqi eshiklari metaldan o`rnatiladi. Deraza va framuga - plastik profildan o`rnatish ko`zda tutilgan. Deraza tokchasining tashqi tomoniga po`lat rux tunukadan qoplash ko`zda tutilgan.

Tashqi pardoz ishlarida - buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq amalga oshiriladi. Tashqi pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Binoning konstruktiv yechimi QMQ 2.01.03-19 "Zilzilaviy hududlarda qurilish" 3.1 grafasi 1.2.2 bandi (b) qismiga yaxlit temirbeton karkaslar, jumladan, yig'ma orayopmalar bog'lamli yoki rama-bog'lamli binolarni kategoriyasiga mansub.

Binoning konstruktiv tarkibiy elementlarining qisqacha tavsifi: Poydevorlar - quyma temir-betondan. Diafragmalar monolit temir-betondan, kesim t=400, 200mm. Tashqi devorlari – qalinligi 300mm, gazobetondan. Pardadevor – gazobetondan. Sinch va ustunlar bilan kuchaytirilgan, oraliq devorlar, burchak kesishmalari SG rusumli sim to`r bilan kuchaytirilgan. Ustun – quyma temirbetondan bajariladi. Rigel - quyma temirbetondan. Orayopma va tom yopma – quyma temirbeton plitadan. Zinapoyalar - quyma temirbetondan. Lift shaxtasi - quyma temirbetondan. Tom issiqlik qatlami – mineral plitadan 100mm qalinlikda bajariladi Tom qismi – metal konstruksiyalardan tayyorlangan, ustki qismi profnastil qalinligi 0.51 mm. Otmostka - asosi shag'al, beton qorishma bilan bajariladi.

Shuning bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida besedka, bolalar maydonchasi, ichki va tashqi muhandislik tarmoqlari, LEP-0,4 va LEP-10 kV, hududni obodonlashtirish hamda nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv taminlanishi ko‘zda tutilgan.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`niy, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.
- Tom issiqlik qatlami – mineral plitadan 100mm bajariladi.
- Pol izolyatsiyasi ko`piklashtirilgan politilendan bajariladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatildi;
- bino hududida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar re’jalashtirildi;
- binoga kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirildi;
- binoning qavati yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo’naltiruvchi taktil qoplamalar re’jalashtirildi;
- binoda hojatxona tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatildi;
- binodagi eshik qirg`og’iga 100mm kenglikda kontrast lenta re’jalashtirildi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 11.07.2025-yilda berilgan va 01.08.2025-yilda qayta rasmiylashtirilgan №1703-1703203-231764-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 13.10.2025-yildagi №03204114199-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Suv ta'minoti - “Andijon suvta`minoti” MChJ Andijon tuman filialining 11.11.2025-yildagi №134-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Binolarni isitish xar bir xonadonda xududdagi qozonxonadan amalga oshiriladi. Isitish sistemasi ikki quvurli gorizontal qabul qilingan. Isitish uskunalari sifatida alyumin radiatorlar qabul qilingan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Binolarga xo‘jalik-ichimlik, oqava suv va issiq suv ta’minoti tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi elektr suv isitkichlardan va va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyixalangan.

Elektr ta`minoti:

Ushbu elektr qismi ShNQ 2.04.17-2019, ShNQ 2.08.01-2019, ShNQ 2.01.05-2019 va PUE ga muvofiq loyihaning arxitektura-qurilish qismining vazifalari asosida amalga oshirildi. Elektr ta'minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar-joy binosi II toifali iste'molchilarga tegishli. Kirish-tarqatish qurilmasi sifatida AUO blokli VRU1-23-55UXL4 seriyasi qabul qilindi. Turar-joy binosida elektr energiyasini hisobga olish EX-518U tipidagi elektron hisoblagich bilan ta'minlanadi. Bino tomida quvvati 15kVt bo`lgan quyosh fotoelektr stansiyasi o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Yong`in xavfsizlig tizimi:

Loyiha bilan 7+1 qavatli (8-qavati ochiq terassali pentxaus kvartiralar) turar-joy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Yerto‘la qavatidan bevosita tashqariga chiqish evakuatsiya yo‘llari mavjud. Yerto‘la qavatida omborxona, 1-qavatida MFY idorasi, savdo zallari, yashash kvartiralari, 2-8 qavatlarida yashash kvartiralarini joylashtirish rejalashtirilgan. Tom qismi – yog‘och va metall konstruksiyalari yordamida profnastil yopilgan. Isitish tizimi – markaziy. Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binolarning olovbardoshlik darajasi – II, funksional yong‘in xavfi sinfi - 1.3.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlar ko‘zda tutilgan: Turar-joy binolari tashqi devorlarining izolyasiyasi uchun yonmaydigan materiallar, kvartiralardan ochiq turdagi balkonlar, yong‘in o‘chirish tashqi manbasi sifatida binolar yonida 2 ta (turar joy binolaridan norma talablari asosida masofalarda joylashgan) yong‘in o‘chirish gidrantlari, binolar atrofida yong‘in-qutqaruv avtoekipajlari harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘llar, tom yog‘och qismlariga yonish xususiyatini pasaytiruvchi suyuqlik bilan ishlov berish, tom qismida metal tutqichlar, evakuatsiya yo‘nalishidagi barcha eshiklar uchun o‘zini-o‘zi berkituvchi moslamalar, noturar barcha himoya qilinuvchi xonalar va kvartiralarning yo‘lak va oshxonalarida yong‘in xabarlagichli yong‘in signalizatsiya tizimi, odamlarni yong‘indan xabardor va evakuatsiya qilishni (1-tur) boshqarish tizimlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, yong‘in signalizatsiya tizimi ishga tushgan hollarda eng yaqin joylashgan yong‘in-qutqaruv bo‘limiga avtomatik habar berish, yerto‘la qavatidagi lift ro‘parasida tambur-shlyuz.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 23.09.2025-yildagi №215135202-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Andijon viloyati filiali tomonidan 2025-yil 21-avgust kuni berilgan №01-02/03-6197-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **44 498 404 570** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

1 232 395 938 so'mga kamaytirilib, **43 266 008 632** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **35 074 725 984** so'm
Asbob-uskunalar: **3 555 638 866** so'm
QQS: **4 635 643 782** so'm
6.1. loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.
6.2. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.
6.3. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.
6.4. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.
6.5. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 23.09.2025-yildagi №215135202-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.
6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.
6.7. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.
6.8. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, obyekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligi inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.
6.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko’kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-46-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qat`iy rioya etilsin.
6.10. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.
6.11. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.
6.12. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ

2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.

6.13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.14. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 44 498 404 570 so'mni tashqil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 1 232 395 938 so'm qurilish materiallari narhlari va mashina-mexanizm harajatlari xisobidan kamaytirildi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha: “Andijon viloyati Andijon tumani Istiqlol MFY, Istiqbol ko’chasi, 500-manzil xududida “Mavjud binolarni buzib o`rniga 4 dona 7 qavatli 8-qavati pentxaus uslubida ko`p qavatli turar joy binolari, shundan 2 tasining 1-qavatlarida MFY idorasi xamda savdo va maishiy xizmat ko’rsatish” bino-inshootlari qurilishi” obyekti taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni	- 1621,9 m^2;
Umumiy maydon	- 13803,1 m^2;
Yashash maydon	- 5012,88 m^2;
Qurilish hajmi	- 51124,32 m^3;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 230 101,18 odam/soat
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 43 266 008 632 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchub ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Bosh ekspert: Sadiqov Alisher Odiljonovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Umarov Ravshan Maxamadjonovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Egamov Javlon Naimjanovich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li